



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSİYANING O'RNI	18
O'rinov Akmaljon Ahmadjonovich Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o'g'li	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI	22
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna	
ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....	27
Babajanova Dilfuza Abdurasulovna	
HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)	32
Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna	
TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI.....	41
Barotov Umidjon Mahmud o'g'li	



TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI

Barotov Umidjon Mahmud o'g'li

Buxoro davlat universiteti

“Turizm va mehmonxona xo‘jaligi” kafedrasida mustaqil izlanuvchisi

Email: u.m.barotov@buxdu.uz

Annotatsiya: Maqolada turizm mavsumiyligini keltirib chiqaruvchi omillarning olti guruhli integratsion tasnifi taklif qilinadi. Tabiiy-iqlimiy, institutsional, ijtimoiy-psixologik, iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va texnologik-axborot omillari hamda ular o'rtasidagi integratsion ta'sir mexanizmlari (kuchaytiruvchi, yumshatuvchi, zanjirli) nazariy jihatdan asoslangan. Tasnifning ilmiy yangiligi — siyosiy-huquqiy va texnologik-axborot omillarini mustaqil guruh sifatida ajratish bo'lib, bu Markaziy Osiyo turizmi va issiq iqlimli madaniy destinatsiyalarda mavsumiylikni kompleks boshqarish uchun nazariy asos yaratadi.

Kalit so'zlar: turizm mavsumiyligi, omillar tasnifi, olti guruhli model, integratsion yondashuv, tabiiy-iqlimiy omillar, institutsional omillar, texnologik-axborot omillar.

Abstract: The article proposes a six-group integrated classification of factors determining tourism seasonality. Natural-climatic, institutional, socio-psychological, economic, political-legal, and technological-informational factors, as well as their integrative interaction mechanisms (synergistic, mitigating, and cascading), are theoretically substantiated. The scientific novelty of the classification lies in distinguishing political-legal and technological-informational factors as independent groups, which provides a theoretical foundation for the comprehensive management of seasonality in Central Asian tourism and hot-climate cultural destinations.

Keywords: tourism seasonality, factor classification, six-group model, integrative approach, natural-climatic factors, institutional factors, technological-informational factors.

Аннотация: В статье предложена интеграционная классификация факторов, определяющих сезонность туризма, включающая шесть групп. Теоретически обоснованы природно-климатические, институциональные, социально-психологические, экономические, политико-правовые и технологически-информационные факторы, а также механизмы их интеграционного взаимодействия (усиливающие, смягчающие и каскадные). Научная новизна классификации заключается в выделении политико-правовых и технологически-информационных факторов в самостоятельные группы, что формирует теоретическую основу для комплексного управления сезонностью в туризме Центральной Азии и культурных дестинациях с жарким климатом.

Ключевые слова: сезонность туризма, классификация факторов, модель из шести групп, интеграционный подход, природно-климатические факторы, институциональные факторы, технологически-информационные факторы.

KIRISH

Turizm mavsumiyligi — turistik talab va taklifning yil davomida notekis taqsimlanishi — jahon turizmining eng dolzarb va murakkab muammolaridan biri hisoblanadi. Mavsumiylikni tushunish va uni boshqarish uchun avvalo bu hodisani keltirib chiqaruvchi omillarni to'g'ri tasniflash va ularning o'zaro ta'siri mexanizmlarini ochib berish zarurdir.

Mavsumiylik omillarini tasniflash bo'yicha ilmiy yondashuvlar yarim asrdan ortiq tarixga ega bo'lib, R. Bar-Onning ikki guruhli klassik tasnifidan boshlab to G. Corlukaning besh guruhli zamonaviy modeligacha bo'lgan davrda muhim konseptual rivojlanish kuzatiladi [1, 2, 3, 4, 5]. Biroq mavjud tasniflarning hech biri XXI asr turizmining murakkab omillar tizimini to'liq aks ettira olmaydi — xususan, siyosiy-huquqiy omillar (viza siyosati, geosiyosiy barqarorlik, soliq imtiyozlari) va texnologik-axborot omillar (raqamli platformalar, sun'iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar) ko'pincha alohida guruh sifatida ajratilmaydi yoki yetarli darajada qamrab olinmaydi.



Mazkur maqolaning maqsadi — turizm mavsumiyligini keltirib chiqaruvchi omillarning kompleks nazariy tahlilini amalga oshirish, mavjud tasniflarning konseptual rivojini qiyosiy o'rganish hamda olti guruhli integratsion tasnifni asoslab, omillar guruhlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlarini nazariy jihatdan modellashtirish bo'lib hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavsumiylik omillarini tasniflash bo'yicha ilmiy yondashuvlar tarixiy rivojlanish jarayonida tobora murakkablashib, ko'p o'lchovli xarakterga ega bo'lib bormoqda. R. Bar-Onning 1975-yildagi klassik tadqiqoti turizm mavsumiyligini ilmiy o'rganishning konseptual asosini yaratgan bo'lib, u birinchi marta mavsumiylik omillarini ikki asosiy guruhga ajratdi: tabiiy mavsumiylik (iqlim, harorat, yog'ingarchilik) va institutsional mavsumiylik (ta'tillar, bayramlar, ish kalendari) [1]. Bar-Onning ikkilamchi tasnifi o'z davrida muhim ilmiy hissa bo'lib, akademik olamda muvaffaqiyatli qabul qilindi va keyingi yarim asr davomida turizm mavsumiyligini o'rganishning asosiy ramkasi sifatida qo'llanildi. Biroq turizm sanoatining murakkablashuvi va yangi omillarning paydo bo'lishi ushbu dastlabki tasnifning yetarli emasligini ko'rsatdi.

R. W. Butler 1994-yilda Bar-Onning yondashuvini sezilarli darajada rivojlantirib, mavsumiylikni "ma'lum bir davrdagi turistik faoliyatning vaqtinchalik nomutanosibligi" deb ta'rifladi va mavsumiylik omillarini kengaytirgan holda ijtimoiy va iqtisodiy omillarni alohida kategoriya sifatida ajratishni taklif qildi [2]. Butlarning to'rt guruhli modeli — tabiiy, institutsional, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni qamrab olgan — tasniflashda muhim qadam bo'ldi. T. Baum va S. Lundtorp 2001-yildagi keng qamrovli ko'lamda integratsion yondashuvni rivojlantirib, mavsumiylikni turli omillar tizimining birgalikdagi ta'siri natijasi sifatida ko'rib chiqdilar [3]. Mualliflar omillarning integratsion mexanizmlariga e'tibor qaratib, an'anaviy yondashuvlardagi statik tahlilning chegaralanganligini ochib berishdi.

N. Koenig-Lewis va E. E. Bischoff 2005-yilda "tortuvchi va itaruvchi" omillar paradigmasini taklif qilib, omillarni turistlarni jo'natuvchi va qabul qiluvchi mintaqalardagi ta'sir nuqtayi nazaridan ajratdilar [4]. Bu yondashuv mintaqaviy turizm tahlillari uchun ayniqsa qulay bo'ldi. G. Corluka 2019-yildagi tadqiqotida 50 yillik ilmiy adabiyotni tizimlashtirib, mavsumiylik omillarini beshta asosiy guruhga ajratishni taklif qildi: tabiiy, institutsional, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va texnologik [5]. Corluka tasnifining muhim hissasi — texnologik omillarni mustaqil guruh sifatida ajratish bo'lib, bu raqamli inqilob davrida turizm tadqiqotlari uchun zaruriy yangilanishni taqdim etdi. Tasniflashning konseptual rivoji 1-jadvalda tizimlashtirilgan (1-jadval).

1-jadval
Turizm mavsumiyligi omillari tasniflash yondashuvlarining qiyosiy tahlili¹

Muallif va yil	Taklif etilgan tasnif	Asosiy cheklov
R. Bar-On, 1975 [1]	2 ta guruh: tabiiy; institutsional	Iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik omillarni qamrab olmaydi
R. Butler, 1994 [2]	4 ta guruh: tabiiy; institutsional; ijtimoiy; iqtisodiy	Texnologik va siyosiy-huquqiy omillarni mustaqil ajratmagan
T. Baum, S. Lundtorp, 2001 [3]	Integratsion yondashuv: omillar tizimining birgalikdagi ta'siri	Omialarning miqdoriy o'lchovini berish qiyin
N. Koenig-Lewis, E. Bischoff, 2005 [4]	Push va Pull omillar: iqlim, madaniyat, iqtisodiy, kalendar	Omillar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni hisobga olmaydi
G. Corluka, 2019 [5]	5 ta guruh: tabiiy; institutsional; iqtisodiy; ijtimoiy-madaniy; texnologik	Siyosiy-huquqiy omillarni alohida ajratmagan

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, mavjud tasniflar mavsumiylik omillarining turli jihatlarini yoritgan bo'lsa-da, ularning har birida muayyan cheklovlar mavjud. Bar-On va Butlarning klassik yondashuvlari texnologik va siyosiy-huquqiy omillarni qamrab olmaydi; Koenig-Lewis va Bischoff yondashuvi omillar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni hisobga olmaydi; Corluka esa siyosiy-huquqiy omillarni alohida ajratmagan. Mazkur cheklovlarni bartaraf etish va Markaziy Osiyo turizmining o'ziga xosliklarini hisobga olish maqsadida joriy tadqiqotda mavsumiylik omillarining olti guruhli kengaytirilgan tasnifi taklif qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot kompleks nazariy tahlil va kontseptual umumlashtirish usullariga asoslangan. Asosiy metodologik yondashuvlar quyidagilardan iborat: birinchidan, qiyosiy adabiyotlar tahlili — 1975-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda mavsumiylik omillarini tasniflashga oid ilmiy adabiyotlarning tizimli o'rganilishi; ikkinchidan, sintez va

1 Adabiyotlar asosida muallif ishlanmasi




kontseptual integratsiya — turli mualliflar tomonidan taklif etilgan tasniflarning kuchli tomonlarini birlashtirib, kengaytirilgan ramka shakllantirish; uchinchidan, deduktiv mantiqiy tahlil — omillar guruhlarining ichki tuzilmasi va ular o'rtasidagi sabab-natija mexanizmlarining nazariy asoslanishi; to'rtinchidan, tizimli tahlil — omillar tizimining yaxlit hodisa sifatida modellashtirilishi va sinergik effektlarning nazariy modellashtirilishi.

Tadqiqotning manba bazasi quyidagi guruhlardan iborat: birinchidan, mavsumiylik nazariyasi bo'yicha klassik xalqaro adabiyotlar [1, 2, 3, 4, 5]; ikkinchidan, har bir omil guruhiga oid maxsus tadqiqotlar — tabiiy-iqlimiy omillar bo'yicha de Freitas, Rutty va Scott [6, 7], iqtisodiy omillar bo'yicha Rosselló-Nadal va boshqalar [8], institutsional omillar bo'yicha Connell va boshqalar [9], texnologik omillar bo'yicha Mariani va boshqalar [10, 11], ijtimoiy-psixologik omillar bo'yicha Hartmann [12]; uchinchidan, Jahon turizm tashkiloti hisobotlari va statistik manbalar [13, 14].

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida bayon etilgan adabiyotlar tahlili va metodologik asoslar negizida mazkur tadqiqotda mavsumiy tebranishlarni keltirib chiqaruvchi omillarning olti guruhli integratsion tasnifi taklif qilinadi. Tasnif quyidagi guruhlarni qamrab oladi: tabiiy-iqlimiy; institutsional-tashkiliy; ijtimoiy-psixologik; iqtisodiy; siyosiy-huquqiy; texnologik-axborot. Olti guruhli tasnifning umumiy strukturasi va har bir guruhning ichki tarkibiy elementlari 1-rasmda taqdim etilgan (1-rasm).



1-rasm. Mavsumiy tebranishlarni keltirib chiqaruvchi omillarning olti guruhli tasnifi²

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, taklif qilinayotgan tasnifda barcha olti omil guruhi markazda joylashgan "Mavsumiy tebranishlar omillari tizimi" bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lib, ular alohida ta'sir ko'rsatish bilan birga, o'zaro ta'sir mexanizmlari orqali ham bir-birini kuchaytiradi yoki yumshatadi. Har bir guruhning ichki tuzilmasi, asosiy tarkibiy elementlari va ta'sir mexanizmlari quyida batafsil tahlil qilinadi.

Tabiiy-iqlimiy omillar mavsumiy tebranishlarning eng asosiy va dastlabki tan olingan determinantlari hisoblanadi. Bar-On bu omillarni mavsumiylikning "tabiiy" komponenti sifatida ta'riflagan [1]. Mazkur guruhning

2 Adabiyotlar tahlili asosida muallif ishlanmasi



asosiy tarkibiy elementlari quyidagilardan iborat: havo harorati, yog'ingarchilik miqdori, kun davomiyligi va iqlim o'zgarishi tendensiyasi. De Freitas turizm klimatologiyasi sohasidagi innovatsion tadqiqotida turistlar uchun qulay harorat oralig'ini (18–28°C) miqdoriy aniqlab berdi va bu oralıqdan tashqaridagi haroratlarning turistik talabni sezilarli kamaytirishini empirik isbotladi [6]. Issiq iqlimli mintaqalarda yozgi haroratning 40°C dan oshishi yozgi oylarning past mavsumga aylanishining bosh sababi hisoblanadi.

Yog'ingarchilik va nam sharoitlari ochiq havoda turistik faoliyatga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi ikkinchi muhim iqlim omilidir. Quruq iqlimli hududlarda yoz oylarida yog'ingarchilik minimal darajada bo'lsa-da, yuqori harorat bilan birgalikda quruq issiqlik shakllanib, ochiq havoda madaniy ekskursiya imkoniyatlarini keskin cheklaydi. Kun davomiyligi va quyosh nuri intensivligi ham mavsumiylikka ta'sir ko'rsatuvchi muhim tabiiy omildir; M. Rutty va D. Scott O'rta yer dengizi mintaqasi turizmini tadqiq etib, quyosh nuri miqdori va turistik jozibadorlik o'rtasidagi statistik bog'liqlikni asoslab berishdi [7]. Iqlim o'zgarishining uzoq muddatli ta'siri esa mavsumiy tebranishlarni keltirib chiqaruvchi yangi va tobora kuchayib borayotgan omil sifatida alohida e'tiborni taqozo etadi — bu ayniqsa Markaziy Osiyoning issiq mintaqalari uchun dolzarb hisoblanadi.

Institutsional omillar — jamiyat tomonidan shakllantiriladigan tuzilmaviy omillar bo'lib, ular odamlarning sayohat qilish vaqtini bevosita belgilaydi. Hartmann bu omillarni "inson tomonidan yaratilgan mavsumiylik" deb atab, mavsumiy tebranishlarning ko'pchiligi tabiat emas, balki ijtimoiy tuzilmaning mahsuli ekanligini isbotladi [12]. Bu nazariy xulosa juda muhim ahamiyatga ega: agar mavsumiylikning sezilarli qismi inson tomonidan yaratilgan bo'lsa, demak, uni inson tomonidan o'zgartirish ham mumkin.

Institutsional-tashkiliy omillar guruhining asosiy tarkibiy elementlari quyidagilardan iborat: birinchidan, akademik ta'tillar va ish kalendari — Yevropada XVIII asrdan meros bo'lib kelayotgan iyun–sentyabr o'rtalaridagi yozgi ta'til kalendari oilaviy turizm oqimining 60–70 foizini bu davrga to'playdi va aksariyat madaniy destinatsiyalarda yozgi cho'qqi mavsumni shakllantiradi. Ikkinchidan, milliy va diniy bayramlar — Navro'z, Ramazon va Qurbon hayit kabi mahalliy bayramlar Markaziy Osiyo destinatsiyalari uchun, Rojdestvo va Yangi yil bayramlari G'arb mamlakatlaridagi turistlar uchun mavsumiy talabni shakllantiruvchi institutsional omillar hisoblanadi. Connell va boshqalar tadbir turizmining mavsumiylikni yumshatishdagi rolini batafsil tadqiq etib, muvaffaqiyatli festivallar va tadbirlar past mavsumda turistik talabni 20–30 foizga oshirishi mumkinligini isbotladilar [9]. Uchinchidan, transport infratuzilmasi va aviaqatnovlar jadvali — aviakompaniyalarning mavsumiy jadvallarini o'zgartirishi turistik talabga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy-psixologik omillar turistlarning sayohat vaqtini tanlashga ta'sir ko'rsatuvchi individual va guruhiy motivatsiyalarni o'z ichiga oladi. Bu omillar turistlarning xulq-atvor modellarini, madaniy stereotiplarini va dam olish odatlarini qamrab oladi. Dam olish madaniyati va an'analari turizmning mavsumiy taqsimlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi: ko'plab mamlakatlarda "yozgi ta'til" an'anasi juda mustahkam bo'lib, oilalar ta'til vaqtlarini yoz oylariga rejalashtirish odatiga ega bo'lib, bu madaniy stereotip turizm talabining yoz oylarida to'planishiga muhim hissa qo'shadi.

Ijtimoiy-psixologik omillar guruhining asosiy tarkibiy elementlari quyidagilardan iborat: birinchidan, dam olish madaniyati va sayohat motivatsiyasi — turistlarning sayohat qilish sabab va maqsadlari mavsumiy talabning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ikkinchidan, moda tendensiyalari va ijtimoiy ta'sir — ijtimoiy tarmoqlarda "trending" destinatsiyalar haqidagi postlar muayyan vaqt oralig'ida turistik talabni keskin oshirishi mumkin. Uchinchidan, demografik o'zgarishlar va xulq-atvor modellari — rivojlangan mamlakatlarda aholining yoshi oshishi natijasida nafaqaxo'rlar soni ortib bormoqda; ular esa ta'til kalendari vaqtlariga bog'liq emas va yil davomida ixtiyoriy vaqtda sayohat qilish imkoniga ega bo'lib, past mavsumda turistik talabni oshirish uchun muhim potensial yaratadi. Shuningdek, masofaviy ishlash imkoniyatining kengayishi ("raqamli ko'chmanchi" hodisasi) an'anaviy mavsumiy qonuniyatlarga bo'ysunmaydigan yangi turistlar segmentini shakllantirib, mavsumiylikni tabiiy ravishda yumshatish potensialiga ega.

Iqtisodiy omillar turistik talab va taklifning hajmiga hamda vaqtinchalik taqsimlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Butlarning to'rt guruhli tasnifida iqtisodiy omillar mustaqil kategoriya sifatida ajratilgan bo'lsa-da [2], ularning ichki tuzilmasi va mavsumiylikka ta'siri mexanizmlari keyingi tadqiqotlarda ancha chuqurroq ochib berildi. Rosselló-Nadal va boshqalar mavsumiylikning iqtisodiy belgilovchi omillari, jumladan narx, mintaqaviy farqlar va talabning iqlim sezgiriligini empirik tahlil qilib, iqtisodiy omillarning ko'p qirrali tabiatini asoslab berishdi [8].

Iqtisodiy omillar guruhining asosiy tarkibiy elementlari quyidagilardan iborat: birinchidan, narx omili — aviabiletlar, mehmonxonalar va paket turlarning mavsumiy tebranishlari turistik talabga juda sezgir ta'sir ko'rsatadi. Cho'qqi mavsumda narxlarning oshishi qisman talabni qaytaradi, lekin past mavsumdagi narx pasayishi ko'pincha boshqa cheklovchi omillar tufayli yetarli darajada talabni qayta yo'naltira olmaydi. Ikkinchidan, valyuta kursi tebranishlari — xalqaro turizmga jo'natuvchi va qabul qiluvchi mamlakatlar valyutalari o'rtasidagi nisbat sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Uchinchidan, daromad darajalari va iqtisodiy sikllar — retsessiya davrida turistlarning qisqaroq va arzonroq sayohatlarga o'tishi, shuningdek past mavsumga o'tish tendensiyasining kuchayishi kuzatiladi. To'rtinchidan, dinamik narxlash tizimlari — zamonaviy turizm sanoatida



real vaqtda talab darajasiga moslashtirilgan narx mexanizmlari mavsumiy tebranishlarni qisman boshqarish vositasiga aylanmoqda.

Siyosiy-huquqiy omillar mavjud tasniflarning aksariyatida alohida guruh sifatida ajratilmagan bo'lib, mazkur tadqiqotda ularning mustaqil ta'sir kuchiga ega ekanligini asoslash muhim nazariy hissa hisoblanadi. Jahon turizm tashkiloti hisobotlarida siyosiy barqarorlik va huquqiy tartibga solishning turizmga ta'siri alohida ta'kidlanadi [13]. Siyosiy-huquqiy omillar guruhining asosiy tarkibiy elementlari quyidagilardan iborat: viza siyosati va chegaraviy nazorat tartiblari, soliq imtiyozlari va davlat subsidiyalari, xavfsizlik holati va geosiyosiy barqarorlik hamda turizm sohasini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi.

Viza siyosati va chegaraviy nazorat mavsumiylikka bevosita ta'sir ko'rsatadi: viza rejimining liberallashuvi yoki cheklanishi turistik oqimlarning hajmi va vaqtinchalik taqsimlanishini o'zgartiradi. Muhimi shundaki, vizasiz keluvchi turistlarning mavsumiy taqsimlanishi vizali keluvchilarga nisbatan bir tekisroq bo'ladi, chunki ular sayohat vaqtini erkin tanlash imkoniga ega. Shu sababli viza liberallashuvi mavsumiylikni tabiiy ravishda yumshatish vositasi sifatida ham qaralishi mumkin. Soliq imtiyozlari va davlat subsidiyalari ham past mavsumda turistik faollikni rag'batlantirish uchun samarali siyosiy-huquqiy vositalardir. Xavfsizlik holati va geosiyosiy beqarorlik esa COVID-19 pandemiyasi davrida yaqqol namoyon bo'lganidek, turistik oqimlarni keskin qayta shakllantirish potensialiga ega.

Texnologik-axborot omillar guruhi — turizm sanoatida raqamli inqilobning natijalari va so'nggi yillarda mavsumiylikka tobora kuchayib borayotgan ta'sir ko'rsatadigan omillarni qamrab oladi. Corluqa 2019-yilda mavsumiylik adabiyotini tizimlashtirgan ishida texnologik omillarni mustaqil guruh sifatida ajratish zarurligini birinchi marta asoslab berdi [5]. Texnologik-axborot omillar guruhining asosiy tarkibiy elementlari quyidagilardan iborat: raqamli bronlash platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va kontent platformalari, sun'iy intellekt va dinamik narxlash algoritmlari hamda geolokatsiya va Big Data texnologiyalari.

Raqamli bronlash platformalari — Booking.com, Expedia, Airbnb va shu kabi global onlayn agregatorlar — turistik talabning vaqtinchalik tarkibini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mariani va boshqalar onlayn platformalardan olingan ma'lumotlar asosida turizm talabining mavsumiy tarkibini tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqib, raqamli platformalarning real vaqtda mavsumiylik shakllantiruvchi kuchini empirik isbotladilar [10, 11]. Bu platformalardagi narx algoritmlari, qidiruv natijalari va sun'iy intellekt asosidagi tavsiyalar tizimi turistik tanlovlarni shakllantirib, qaysi destinatsiyalar va qaysi sanalar mashhur bo'lishini bevosita aniqlaydi. Ijtimoiy tarmoqlar va TripAdvisor sharhlari ham turistik destinatsiyalar haqida axborotning tarqalishini va shu orqali talabning vaqtinchalik tebranishlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Mavsumiy tebranishlarni keltirib chiqaruvchi omillar alohida ta'sir ko'rsatish bilan cheklanmaydi — ular o'zaro murakkab ta'sir mexanizmlari orqali bir-birini kuchaytiradi, kuchsizlantiradi yoki zanjir reaksiyasini keltirib chiqaradi. Mazkur tadqiqotda omillar o'rtasidagi uchta asosiy o'zaro ta'sir mexanizmi aniqlanib, nazariy jihatdan asoslangan: kuchaytiruvchi (sinergik), yumshatuvchi (antagonistik) va zanjirli (kaskad) ta'sirlar. Bu mexanizmlarning tizimlashtirilgan tahlili 2-jadvalda taqdim etilgan (2-jadval).

2-jadval
Omillar guruhlari o'rtasidagi sinergik ta'sir mexanizmlari³

Ta'sir turi	Ishtirok etuvchi omillar	Amaliy misol	Mavsumiylikka ta'siri
Kuchaytiruvchi	Tabiiy + Institutsional	Yozgi issiqlik + ta'tillar tugashi past mavsumni shakllantiradi	Kuchli salbiy
Kuchaytiruvchi	Tabiiy + Iqtisodiy	Qulay ob-havo + arzon narxlar cho'qqi mavsumni jadallashtiradi	Kuchli ijobiy
Yumshatuvchi	Tabiiy + Iqtisodiy	Issiqlik + chegirma narxlar past mavsumni qisman yumshatadi	Yumshatuvchi
Yumshatuvchi	Tabiiy + Texnologik	Issiqlik + raqamli marketing past mavsumda jalb qilish	Yumshatuvchi
Zanjirli	Siyosiy → Institutsional → Texnologik	Vizasiz rejim → yangi parvozlar → onlayn ko'rinuvchanlik	Ko'p bosqichli ijobiy
Zanjirli	Siyosiy → Institutsional → Iqtisodiy	Pandemiya → chegaralar yopilishi → iqtisodiy inqiroz	Ko'p bosqichli salbiy

Birinchi mexanizm — kuchaytiruvchi (sinergik) ta'sir — ikki yoki undan ortiq omilning birgalikdagi ta'siri ularning alohida ta'sirlari yig'indisidan kattaroq bo'ladigan holatni ifodalaydi. Bu $E(A+B) > E(A) + E(B)$ ko'rinishida ifodalanishi mumkin. Issiq iqlimli destinatsiyalarda sinergik ta'sirning eng yaqqol misoli yozgi

3 Manba: muallif ishlanmasi



Issiqlik (tabiiy omil) va Yevropa maktab ta'tillarining tugashi (institutsional omil) birgalikdagi ta'siridir: iyun–iyul oylarida haroratning oshishi va ayni paytda Yevropa turistlari uchun ta'til mavsumining hali boshlanmasligi birgalikda turistlar sonining cho'qqi mavsumga nisbatan sezilarli tushishiga olib keladi. Ikkinchi mexanizm — yumshatuvchi (antagonistik) ta'sir — bir omil boshqa omilning mavsumiylikka ta'sirini qisman yoki to'liq neytrallashtiradi. Yozgi past mavsumda mehmonxonalar tomonidan amalga oshiriladigan narx pasaytirish strategiyalari (iqtisodiy omil) iqlim omilining salbiy ta'sirini qisman yumshatadi; xuddi shunday, texnologik omillar (raqamli marketing va onlayn maxsus takliflar) tabiiy omillarning salbiy ta'sirini qisman bartaraf etish imkonini beradi.

Uchinchi mexanizm — zanjirli (kaskad) ta'sir — bir omildagi o'zgarish zanjir reaksiyasi orqali boshqa omillar guruhlariga tarqaladi. Masalan, viza siyosatining liberallashuvi (siyosiy-huquqiy omil) aviakompaniyalarning yangi yo'nalishlar ochishiga (institutsional omil) turtki beradi; bu esa onlayn platformalarda destinatsiyaning ko'rinuvchanligini oshiradi (texnologik omil); natijada past mavsumda ham turistik talab oshadi. Aksincha holatda esa COVID-19 pandemiyasi (siyosiy-huquqiy omil — chegaralarning yopilishi) aviaqatnovlarning to'xtatilishiga (institutsional omil), bu esa iqtisodiy retsessiyaga (iqtisodiy omil) va ijtimoiy stereotiplarning o'zgarishiga (ijtimoiy-psixologik omil) olib keldi. Bu sinergik mexanizmlarning amaliy ahamiyati shundaki, mavsumiylikni boshqarish strategiyalari faqat bir omilga emas, balki kompleks tarzda bir necha omilga aralashishni talab qiladi — faqat narxlarni tushirish (iqtisodiy aralashuv) past mavsumda turistik oqimni jiddiy oshira olmaydi, agar institutsional rejim, texnologik ko'rinish va boshqa omillar birgalikda hal etilmasa.

Issiq iqlimli madaniy destinatsiyalar uchun omillar tizimining o'ziga xos konfiguratsiyasi

Yuqorida tavsiflangan olti guruhli tasnif universal xarakterga ega bo'lib, turli destinatsiyalarda qo'llash mumkin. Biroq mazkur tadqiqotning nazariy qiymati shunda namoyon bo'ladiki, bu tasnif issiq iqlimli mintaqalar turizmining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Issiq iqlimli madaniy destinatsiyalarda omillar tizimining konfiguratsiyasi quyidagicha namoyon bo'ladi: birinchidan, tabiiy-iqlimiy omillar boshqa mintaqalarga nisbatan ancha kuchli dominantlik qiladi — yozgi va qishki harorat ekstremal qiymatlari yilning faqat 4–5 oyini qulay turizm mavsumi sifatida qoldiradi va shu sababli ikki cho'qqili (bimodal) mavsumiy shakl shakllanadi; ikkinchidan, institutsional omillar ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi — asosiy bozorlar ta'til kalendarlari ba'zan qulay (bahor va kuz ta'tillari cho'qqi mavsumga to'g'ri keladi), ba'zan noqulay (yozgi ta'tillar issiqlik bilan to'qnashadi).

Uchinchidan, texnologik omillar issiq iqlimli destinatsiyalar uchun ayniqsa muhim — raqamli platformalar orqali destinatsiyaning xalqaro ko'rinuvchanligining oshishi past mavsumda ham turistlarni jalb qilish imkonini yaratadi va shu sababli iqlim omilining salbiy ta'sirini yumshatish vositasi sifatida xizmat qiladi; to'rtinchidan, iqtisodiy omillar mavsumiy narx differentsiatsiyasi orqali samarali boshqaruv vositasi bo'lishi mumkin, lekin alohida olinganda yetarli ta'sir kuchiga ega emas; beshinchidan, siyosiy-huquqiy omillar (viza liberallashuvi, soliq imtiyozlari) Markaziy Osiyo destinatsiyalari uchun ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi va past mavsumda turistik talabni rag'batlantirish uchun samarali siyosiy vositalardir; oltinchidan, ijtimoiy-psixologik omillar uzoq muddatli ta'sir ko'rsatib, destinatsiya imijini va turistik motivatsiyani shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Mazkur konfiguratsiya Markaziy Osiyo destinatsiyalari uchun mavsumiylikni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishda har olti omil guruhini birgalikda hisobga olish zarurligini asoslaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot turizm mavsumiyligini keltirib chiqaruvchi omillarning olti guruhli integratsion tasnifini taklif qilib, omillar guruhlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlarini nazariy jihatdan asosladi. Mavjud tasniflarda mustaqil ajratilmagan siyosiy-huquqiy va texnologik-axborot omillari alohida guruh sifatida kiritilib, ularning Markaziy Osiyo va issiq iqlimli madaniy destinatsiyalar uchun ahamiyati ochib berildi. Omillar o'rtasidagi uchta ta'sir mexanizmi (kuchaytiruvchi, yumshatuvchi, zanjirli) mavsumiylik hodisasini yagona omil orqali izohlash mumkin emasligini va kompleks yondashuv zaruriyatini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Mavsumiylikni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishda alohida omilga emas, balki olti guruhli tasnif asosida kompleks yondashuvni qo'llash tavsiya etiladi, chunki integratsion ta'sir mexanizmlari hisobiga bir necha omilni birgalikda boshqarish samaradorligi alohida aralashuvlardan yuqori bo'ladi.

2. Markaziy Osiyo destinatsiyalari uchun siyosiy-huquqiy omillar (viza liberallashuvi, soliq imtiyozlari) va texnologik-axborot omillarini (raqamli marketing, onlayn platformalar bilan integratsiya) ustuvor yo'nalishlar sifatida ko'rib chiqish lozim, zero ular past mavsumda turistik talabni rag'batlantirish uchun eng samarali boshqaruv vositalari hisoblanadi.

3. Keyingi tadqiqotlarda har bir omil guruhining mavsumiy tebranishlarga nisbiy ulushini Buxoro viloyati va boshqa Markaziy Osiyo destinatsiyalari misolida empirik baholash hamda omillar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni miqdoriy modellashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. BarOn R. R. V. Seasonality in Tourism: a guide to analysis of seasonality. Technical Paper n. 2 // Economist Intelligence Unit. – 1975.
2. Butler R. Seasonality in Tourism. Issues and Problems. Teoksessa: Tourism. The State of Art, toim. A. Seaton, 332--339. – 1994.
3. Baum T., Lundtorp S. (Eds.). Seasonality in tourism. – Elsevier, 2001.
4. Koenig-Lewis N., Bischoff E. E. Seasonality research: The state of the art //International journal of tourism research. – 2005. – T. 7. – №. 4-5. – C. 201-219.
5. Corluka G. Tourism seasonality—an overview //Journal of business paradigms. – 2019. – T. 4. – №. 1. – C. 21-43.
6. de Freitas C. R. Tourism climatology: evaluating environmental information for decision making and business planning in the recreation and tourism sector //international Journal of Biometeorology. – 2003. – T. 48. – №. 1. – C. 45-54.
7. Ruttly M., Scott D. Bioclimatic comfort and the thermal perceptions and preferences of beach tourists // International journal of biometeorology. – 2015. – T. 59. – №. 1. – C. 37-45.
8. Nadal J. R., Font A. R., Rossello A. S. The economic determinants of seasonal patterns //Annals of Tourism Research. – 2004. – T. 31. – №. 3. – C. 697-711.
9. Connell J., Page S. J., Meyer D. Visitor attractions and events: Responding to seasonality //Tourism management. – 2015. – T. 46. – C. 283-298.
10. Mariani M. M., Di Felice M., Mura M. Facebook as a destination marketing tool: Evidence from Italian regional Destination Management Organizations //Tourism management. – 2016. – T. 54. – C. 321-343.
11. Mariani M., Baggio R. Big data and analytics in hospitality and tourism: a systematic literature review // International Journal of Contemporary Hospitality Management. – 2022. – T. 34. – №. 1. – C. 231-278.
12. Rudihartmann. Tourism, seasonality and social change //Leisure studies. – 1986. – T. 5. – №. 1. – C. 25-33.
13. UNWTO. International tourism highlights, 2024 edition. – Madrid: World Tourism Organization, 2024. – 32 p.
14. Higham J., Hinch T. Tourism, sport and seasons: the challenges and potential of overcoming seasonality in the sport and tourism sectors //Tourism management. – 2002. – T. 23. – №. 2. – C. 175-185.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>